

## O'ZBEKLARDA YOMG'IR CHAQIRISH MAROSIMI VA FOLKLORI: "SUST XOTIN", "CHALA XOTIN"

Zaripov Sodiq Djurayevich  
Buxoro davlat universiteti  
“Jahon tarixi” kafedrasи o'qituvchisi  
Ergashova Musharraf  
4 - kurs, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11076431>

**Annotatsiya:** O'zbeklarda islomgacha bo'lган davrda qadimgi kultlarga sig'ingan holda, turli xil tabiat injiqliklari bilan kurashish va xudolarga bag'ishlab, ularni ko'nglini olish uchun har xil marosimlar o'tkazish an'anasi bo'lgan. Biz mavsumiy marosim sifatida o'rGANADIGAN tabiat hodisalari bilan bog'liq marosimlar aslida tabiat bilan emas, balki, insonlarning xo'jalik mashg'ulotlari bilan bog'liqdir. Shulardan bir bahorning oxiri va yoz oylarining boshida o'tkaziladigan "Sust xotin" marosimidir. Dehqonlar va chorvadorlarga bu mavsumda yomg'ir juda zarur bo'lgan va yomg'ir yog'may qolsa, mahalliy xalq yomg'ir xudosining jahli chiqdi deya baholagan. Bu marosim vaqt o'tgan sari, odamlar ongingin rivojlanishi natijasida yuqolib ketgan. Bizga bu narsa muhim emas. Biz bu marosimlar orqali xalqimizning qadimgi e'tiqodi va madaniyati haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.

**Annotatsiya:** В доисламский период узбеки поклонялись древним культурам, имели традицию борьбы с различными капризами природы и проведения различных обрядов, посвященных богам и их задабривания. Ритуалы, связанные с природными явлениями, которые мы изучаем как сезонные ритуалы, на самом деле связаны не с природой, а с хозяйственной деятельностью людей. Один из них – церемония «Суст хотин», проводимая в конце весны и начале лета. Крестьянам и пастухам в это время года нужен дождь, и если дождя не будет, местные жители верят, что бог дождя разгневался. Этот ритуал со временем был утерян, в результате развития сознания людей. Для нас это не важно. Благодаря этим церемониям мы получаем информацию о древних верованиях и культуре нашего народа.

**Kalit so'zi:** Lalmikor dehqonchilik va chorvachilik, "Sust xotin", "Chala xotin", "Suv xotin", baxtli va baxtsiz kunlar, lokal variantlar.

**Ключевые слова:** земледелие и животноводство, «суст хотин», «Чала хотин», «сув хотин», счастливые и несчастливые дни, локальные варианты.

Insoniyat qadim zamonlardan o'jar tabiat injiqliklari bilan kurashib, uning barcha daxshat va marhamatlariga bardosh berib keladi. Inson ekadi, o'stiradi, parvarish qiladi, quradi, bunga umrini vaqtini baxshida etadi. Ammo, shavkatsiz tabiat ofatlari ular yaratgan moddiy va madaniy boylilarni bir lahzada vayron qiladi. Ma'lumki, o'zbek urug'lari tarkibiga kirgan qabilalar azaldan xo'jalikning ikki turri bilan shug'ullanib kelganlar. Bular dehqonchilik va chorvachilikdir. Lalmikor dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadigan aholi uchun bahor va yozning bosharida yomg'ir yog'ishi muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Uzoq davrlardan tortib to hozirga qadar ajdodlarimiz imkoniyatlari doirasida tabiat injiqliklariga qarshi chora ko'rganlar. Bu dastlab yomg'irni vujudga keltiradigan xudolarga qurbanlik qilib, yalinib-yolvorib, ularga sig'inishdan

iborat bo'lgan. Asta-sekinlik bilan bu tadbirlar marosimlarga aylangan va o'zining maxsus ijro qo'shig'iga ham ega bo'lgan. Xalqimizda "Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q" degan maqol bor. Bu hozirda ko'chma ma'noda ishlatsada, o'zining dastlabki ma'nosini qisman saqlab qolgan. Bir nazar tashlaydigan bo'lsk, insonda nima ko'p bo'lsa o'sha narsaning qadri past bo'ladi. Ariqlarda suv mavjlanib tinimsiz oqib tursa inson uchun suv qadrsiz narsadek tuyuladi. Aslida unday emas. Suv- hayot uchun eng kerakli narsa. Shu sababli inson suvni muqaddaslashtirgan va unga sig'ingan. Irigatsiya shaxobchalari rivojlanmagan paytda, insoniyatni qurg'oqchilik qiyayotgan paytlarda suv haqida turli rivoyatlar, ertaklar va afsonalar to'qishgan, marosimlar vujudga kelgan. Dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq marosimlaridan biri bu yomg'ir chaqirish marosimi. Bu marosim qadimdan saqlanib qolgan. Lalmikor dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadigan aholi uchun bu marosim muhim ahamiyatga ega. Qishloq aholisi yomg'ir suvi bilan sug'oriladigan yerkarni lalmikor yer deya atashadi. Bahor oylari va yozning dastlabki oylarida qurg'oqchilik bo'lishi qishloq dehoqlari va chorvadorlari uchun jiddiy xavf tug'diradi. Shuning uchun ular yomg'ir chaqiriah maqsadida "sust xotin", "suv xotin", "chala xotin" kabi udumllarni o'tkazishadi.

O'tmishda "Sust xotin" marosmi o'zbeklarda quyidagi tartibda o'tkazilgan. Dastlabki bosqich marosimni tashkil etishdan iborat. Bahor oylarida yomg'ir yog'may qolsa, hududlarda qurg'oqchilik boshlangan. Dalalardagi ekinlar unmagan, qir-adirlarda o'tlar quriy boshlagan. Buning natijasida aholi orasida parokandalik vujudga kelgan, ocharchilik bo'lgan. Bu qurg'oqchilikning sababi sifatida odamlarning gunohi ko'payib ketgani va bundan g'azablangan suv xudolari aholiga suv bermay qo'yanligi ko'rsatilgan. Bu orqali qadimgi zoroastrizim e'tiqodiga ko'ra, yomg'ir tangrisi Tishtrianing dev Apaushadan ustun kela olmaganini ko'rsatgan. Shuning uchun bunday paytlarda mahallalarning oqsoqollari gapga chechan shaxsni yollab, ularni marosimni tashkil etishiga ko'rsatma bergen. Marosim maxsus belgilangan kunda va soatlarda o'tkazilgan. Sababi, boshqa xalqlarda bo'lgani kabi turkiylarda ham haftaning baxtli kuni va baxtsiz kunlar, xattoki, soatning ham baxtli va baxtsiz vaqtiali bo'lgan. Hozirgi kunda haftani va soatlarni baxtli va baxtsiz qismlarga ajratish yuqolib ketgan. Ba'zi bir tasavvurlarga ko'ra, haftaning to'rt kuni, ya'ni, yakshanba, dushanba, payshanba, juma kunlari baxtli kunlar hisoblansa, seshanba, chorshanba va shanba kunlari baxtsiz kunlar sifatida qaralgan. Haftani baxtli va baxtsiz kunlarga ajratish e'tiqod bilan bog'liq bo'lganligi sababli, qayta-qayta o'zgarib turgan. Xattoki, birgina o'zbeklarda kunlarni baxtli va baxtsiz kunlarga ajratish islomga qadar bir xilda bo'lsa, islom dini qabul qilingandan so'ng qarashlarda o'zgarishlar bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan, vaqtini va kunni bunday qismlarga ajratish xiralashib, butunlay yuqolib ketgandan keyin uni qaysi kunda o'tkazish ahamiyatsiz bo'lib qoldi. Endi odamlar marosimni o'zlariga xalaqit bermaydigan va hamma uchun maqul bo'lgan kunda o'tkaza boshladilar. Keying bosqich marosim o'tkazishdan iborat. Mas'ul shaxs marosim uchun kerak bo'lgan narsalarni yig'gan. Masalan, bitta bo'sh qovoq, ikkita qamish naycha, ikkita toshbaqa, bitta eshak va xayr-ehson qilish uchun bitta xurjun.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, "Sust xotin" marosimi tarkibi, yoshi, jinsi va ayrim boshqa elementlariga ko'ra hududlararo farq qilgan. "Sust xotin" marosimini o'tkazishning 4 ta lokal variant mavjud.

Birinchi lokal variant. Marosimning bu tipi asosan yurtimizning Shaxriston, O'ratega va Jizzax viloyatining G'allaorol, Zomin, Baxmal tumanlarida, Qashqadaryo vohasida va Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Denov, Sherobod kabi hududlarida o'tkazilgan. Chunki bu hududlarda lalmikor yerlar ko'p bo'lgan. Marosimning bu tipi ancha keng tarqalgan bo'lib, u quyidagi tartibda o'tkazilgan. Dastlab o'n beshta ayol maxsus yasalgan qo'g'irchoqqa qari ayolning kiyimini kiydirishadi va ulardan biri uni ko'tarib, qolganlari unga ergashadi. Ayollar qishloqdagi uylarga birma-bir kirib, butun qishloq bo'ylab sust xotin qo'shig'ini naqarot qilib aytib yurishadi:

Sust xotin, sulton xotin,

Ko'lankasi maydon xotin

Ular tashrif buyurgan xonadon egasi ularni xush kayfiyat bilan kutib olib, qo'lidan kelgancha xayr-ehson qiladi va qo'g'irchoq ustidan suv sepadи. Ular aytayotgan qo'shiqda dehqon sepgan bug'doy mo'l hosil berishi, xonadonlarga xursandchilik keltirishi, el-yurtga to'kinchilik va qut-baraka berishi ta'kidlanadi, eng muhimi, yomg'ir hadya etish "Sust xotin"dan iltijo qilinadi:

Xosillar mo'l bo'lsin, sust xotin,  
 Dehqonlar uyi to'lsin, sust xotin.  
 Yomg'irlarni yog'dirgan, sust xotin  
 Yomonning uyi kuysin, sust xotin.



Uchinchi bandda marosimning aniq maqsadi oydinlashadi. Endi marosim ishtirokchilari so'zları keskinlashadi va ular ochiqdan-ochiq Sust xotindan, yomg'ir, qut-baraka, yog'ingarchilik so'raydilar:

Havolarni yog'dirgan, sust xotin,  
 Bug'doylarni bo'ldirgan, sust xotin.  
 Osmondan tomchi tashlab, sust xotin,  
 El-u yurtni to'ydirgan, sust xotin.



Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, bundan 40-50 yillar muqaddam qishloqlarda "Sust xotin" marosimi yiliga 3-4 marta ham o'tkazilgan. Asta -sekin "Sust xotin" qo'shig'ini biladigan momolar vafot etgani sari uning matni ham esdan chiqqa boshlagan. Biz yuqorida keltirilgan bandlar izlanishlar natijasida nisbatan to'liq saqlangan qo'shiq matnlaridir.

Ikkinchi lokal variant. Marosimning bu varianti asosan Surxondaryo viloyatoning Sho'rchi tumani Qalliq qishlog'i va uning atrofidagi hududlarda hamda Janubiy Tojikiston hududida yashaydigan o'zbeklarda bu marosimni erkaklar o'tkazgan. Uning boshqa variantalardan farqi shundaki, ko'pgina hududlarda bu marosim ayollar tomonidan o'tkazilsa, yurtimizning bu hududida "Sust xotin" marosimi erkaklar tomonidan o'tkazilgan. Ular qo'g'irchoq o'rniغا biron bir odamga ayol kishini kiymini kiydirib, o'shani ustiga suv quyishgan. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Nega bu marosimni erkaklar o'tkazgan? Bu unchalik uzoq o'tmishtga borib tarqalmaydi. Qalliq qishlog'ida ham dastlab bu marosim ayollar tomonidan o'tkazilgan. Buni marosimda bir erkakning ayollar kiyimini kiyib olishi ham tasdiqlaydi. Lekin milodiy XIII-XVIII asrlarda Surxon

vohasida qarluqlar o'troqlasha boshlaydilar. Islom dining tarqalishi bilan ayollarning ijtimoiy hayotdagi o'rni keskin chegaralanadi va bu keyinchalik sust xotin marosimining erkaklar tomonidan o'tkazilishiga sabab bo'ladi. Sust xotin marosimi matnida ham ozgina o'zgarish bo'ladi:

So'z xotin, so'z xotin,  
 Ko'lankasi maydon xotin.  
 So'z xotin, so'z xotin,  
 Ko'yylaklari bo'z xotin

Matnga e'tibor beradigan bo'lsak, "Sust xotin" o'rniga "So'z xotin" shakli kelyapti. Bu aynan sust so'zining fonetik o'zgarishi natijasida bo'lgan. Bunga sabab so'z oxirida sirg'aluvchi undoshdan keyin kelgan jarangsiz portlovchi tovush kelganligidir. Bunday vaziyatlarda asosan oxirgi harf tushib qoladi. Bu ko'pincha fors-tojik tilidan kirib kelgan so'zlarda, ya'ni, go'sht, musht, g'isht, behisht, past, mast va boshqa so'zlarda uchraydi. Bu hududda o'tkazilgan marosim qo'shiqlarida tajjublanib yoki iltijo qilib emas, balki keskin buyruq ohangida yomg'ir so'raladi:

Havoni yog'dirgin, so'z xotin,  
 Bug'doyni bo'ldirgin, so'z xotin.  
 Yomonning yui kuysin so'z xotin,  
 Dehqonga qut bergen, so'z xotin.



Umuman olib qaraganda marosimning bu varianti boshqa variantlardan uncha farqlanmasa-da, ishtirokchilar jinsi va qo'shiq matnlarida ayrim tafovutlar mavjud. Uchinchi lokal variant. Bu variant asosan Janubiy Tojikistonda yashaydigan o'zbek-laqaylarida uchraydi. Bu hududda asosan marosim quyosh botgandan keyin boshlanadi. Laqaylarda 15-20 kishi tanlanib, yarim yalang'och holatda ikki kishini bir-biriga qaratib eshakka o'tirkizishadi. Eshakni ikki tomoniga oyog'ida bog'langan toshbaqalarni osib qo'yishgan. Odamlarning biriga suv to'ldirilgan qovoq, ikkinchisiga ikkita qamish naychasini berishgan. O'sha qamish naychani suv to'ldirilgan qovoq ichiga solib aylantirishgan va qamish naychadan ovoz chiqqan. Ana shu ovoz suvsizlikdan qiynalgan toshbaqaning ovozi deyishgan. Shu tariqa qishloq bo'ylab eshakka mingan ikki odamga ergashgan holda "Sust xotin" qo'shig'ini aytib xonadonlarga kirishgan. Xonodon egasi eshak ustidagi odamlarga suv sepib so'ng xayr-ehson qilishgan. Xayr-ehson don, non, shirinliklar hattoki, qo'y, ot, sigir ham bo'lgan. O'zbek-laqaylarda ham qo'shiq mazmuni qurg'oqchilikdan g'am-tashvishga tushgan dehqonlarning ox-u zori sifatida kuyylanadi. Uning birinchi bandidagi matn Sust xotinga murojat qilib, uning ta'rifini aytish va yomg'ir yog'maslik holatidan ajablanish tarzida keladi:

Sust xotin, Sulton xotin,  
 Ko'lankasi maydon xotin, sust xotin,  
 Olti qarich ovi bor, sust xotin,  
 Oq jiyakdan bovi bor, sust xotin.  
 Havo jovmas bo'lama, sust xotin,

Tomchi tommas bo'lama, sust xotin,  
 Yetmishdagi kampirni, sust xotin,  
 Sel ob ketmas bo'lama, sust xotin ?

To'rtinchi lokal variant. Sust xotin marosimining bu varianti Buxoro viloyatining Qorako'l va Olot tumanlarida o'tkaziladi. Ular bu marosimda "Chala xotin" qo'shig'ini aytishgan. Bunda ham yog'och qo'g'irchoqqa ayollar ko'ylagi kiydirilib "Chala xotin" qo'shig'ini aytib, uyma-uy yurilgan. Uning ortidan 5-6 bola hurjun ko'tarib xayr-sadaqa yig'gan. Marosimdan so'ng tushgan pullarga marosim ishtirokchilari is chiqarishgan. Is chiqarish mahalla guzari yoki boshqa so'lim joylarda o'tkazilgan. Yomg'ir chaqirish marosimi tugagandan so'ng qo'g'irchoq yo yoqib yuborilgan, yoki eski quduqqqa tashlangan."Chala xotin" qo'shig'i hozir yuqolib ketgan bo'lsa-da, uning ayrim esida bor odamlarda yozib olingan variant ham bir xil ma'noni ifodalaydi. Qo'shiqda yomg'ir tangrisidan yomg'ir so'raladi:

Aylanadi chala xotin,  
 O'rgiladi chala xotin.  
 Onamning to'ng'ichiman,  
 Qozonning qirg'ichiman,  
 Yomg'irning yog'gichiman,  
 Xudo bersa obi rahmat yog'aversin  
 Aylanadi chala xotin,  
 O'rgiladi chala cotin.(bs)



Afg'on folklorshunosi Fayzullo Aymoqning ma'lumot berishicha, Afg'onistonda yashaydigan o'zbeklar ham agar qurg'oqchilik bo'lib yomg'ir yog'masa, "yomg'ir gadoyi keldi" marosimini o'tkazganlar. Marosim kunduz kuni 5-6 ta bola ishtirokida o'tkazilgan. Ular boshqa hududlardagi kabi qo'g'irchoqqa qari ayol kiymini kiydirib uyma-uy yurganlar. Xonodon egasi esa qo'g'irchoqqa suv sepib, kelganlarga biron-bir narsa bergenlar. Marosimda aytildigan qo'shiq esa quyidagicha bo'lgan:

Yomg'ir gadoyi keldi,  
 Asosini chaluv keldi,  
 To'rvasini osuv keldi.

Afg'onistondagi o'zbeklarda marosim qo'shig'i farqlansada, uning o'tkazish tartibi deyarli boshqa o'zbeklar bilan bir xil.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Sust xotin" marosimining o'tkazilish tartibi, undagi ishtirokchilarning yoshi va sonining turlichaligi bu marosim O'rta Osiyo xalqlarida qadimdan mavjud ekanligidan dalolat beradi. Bu marosim nafaqat butun O'rta Osiyo xalqlariga, balki unga yondosh bo'lgan, turkiy bo'lмаган xalqlarga ham tarqalgan. Islom dini kirib kelishi va insonlar ongida o'sish bo'lgani sari, bu marosimni o'tkazish kamayib va oxirida yuqolib ketgan.

### References:

1. I.Jabborov: O'zbek xalqi etnografiyasi. Toshkent."O'qituvchi". 1994.

2. A.Ashirov: O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Toshkent. 2007.
3. B. Sarimsoqov: O'zbek marosim folklori. Toshkent. O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti. 1986.
4. Jabborov I. O'zbeklar (An'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati)./I.Jabborov; Mas'ul muharrir S.K.Kamolov. – qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashr. -T.: "Sharq", 2008.

